INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

ISHTIXON TUMANI ETNONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TASNIFI

Ulug‘murodov Shahob Islom o‘g‘li
Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo tillari va madaniyati instituti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ishtixon tumani etnonimlarining leksik-semantik tasnifi berilgan. Unda hudud etnonimlarining nominatsion-motivatsion xususiyatlari yoritilgan. Bunda etnik guruhning nomlanishida qadimiy ishonch-e’tiqodlari, diniy tasavvurlari, falsafiy tushunchalari, totemistik qarashlari, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy, geografik muhiti asos bo‘lganligi misollar asosida tahlil qilingan.

Abstract. This article presents the lexical-semantic classification of ethnonyms in Ishtikhon District. It highlights the nominative-motivational features of the district’s ethnonyms. The study analyzes, with concrete examples, how ancient beliefs and convictions, religious concepts, philosophical ideas, totemistic views, as well as socio-economic, spiritual-cultural, and geographical environments served as the basis for the naming of ethnic groups.

Аннотация. В данной статье дана лексико-семантическая классификация этнонимов Иштиханского района. В ней освещаются номинативно-мотивационные особенности этнонимов региона. На основе примеров проанализировано, что при наименовании этнических групп основную роль играли древние верования и убеждения, религиозные представления, философские понятия, тотемистические взгляды, а также социально-экономическая, духовно-культурная и географическая среда.

Kalit so‘zlar: etnonim, etnonimiya, etnonimika, tamg‘a, totemistik qarash, nominatsiya, motiv, etnik qarash, etnik nom.

Keywords: ethnonym, ethnonymy, ethnonimics, tamga, totemistic views, nomination, motive, ethnic perception, ethnic name.

Ключевые слова: этноним, этнонимия, этнонимика, тамга, тотемистические взгляды, номинация, мотив, этническое восприятие, этническое название.

Tilimizda shunday so‘zlar borki, ularni izohini, nima uchun shunday nomlanganligini aniqlash ma’lum darajada qiyinchilik tug‘diradi. Bunday so‘zlarga mansub hisoblangan atoqli otlar ma’lum zaruriyat, ijtimoiy kelishuv asosida atalgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligini nomlanish sabablarini aniq tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Shunday atoqli otlar toponimlar, ayniqsa, etnotoponimlarning xalq tilida ma’lum bo‘lganlarini etimologiyasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular asos bo‘lgan etnonimlarning tarixi va kelib chiqishi aniq xulosalar bilan isbotlanmagan.

Etnonim so‘zi yunoncha bo‘lib, *ethnos – xalq + onoma atoqli ot* so‘zlaridan hosil bo‘lgan. Har qanday etnos (urug‘, qabila, elat, xalq, millat va boshqalar)ning nomi, bir tilda mavjud etnonimlar majmuyi, yig‘indisi, ro‘yxati *etnonimiya,* nomshunoslikning, shuningdek, tarix, etnografiya fanlarining etnonimlarni tadqiq qiluvchi sohasi esa *etnonimika* deb yuritiladi[1].

Etnonimlar o‘zbek tili leksik qatlamining qadimiy qatlamiga mansub bo‘lib, ko‘pgina etnonimlarning ma’no va etimologiyasi, nomlashi davrlar o‘tishi bilan o‘zgargan va ayrimlari unutilgan. Onomastik tizimdagi etnotoponimlarni tahlil qilish, mazkur nomlarga oid bo‘lgan til, uning lahjalari bilan bog‘liq ham qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi.

Tilning ma’naviy birligi bo‘lgan etnonimlarning semantik tadqiq qilish orqali ularning o‘ziga xos til taraqqiyotidagi o‘zgarishlarini, etimologik xususiyatlarini tizimli ravishda aniqlash imkonini

[1] Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изохли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 95.

beradi. Fanda etnonimlarni seksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish bilan D.A.Shen[2], N.Y.Grigoryeva[3], Y.V.Bogomyagkova[4], S.M.Abramzon[5], V.Bushakov[6], R.A.Sirazhitdinov[7], G.I.Karpov[8], A.Otajonova[9], K.Marqayev[10], A.Ergashev[11], A.Turobov[12] kabi tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan. Bu kabi tadqiqotlarda etnonimlarning leksik-semantik xususiyatlarini tasniflashlarini umumlashtiradigan bo‘lsak, umumiy tarzda quyidagi belgilariga e’tibor berilgan: 1) urug‘ning tamg‘a shakli ko‘rinishi yoki maxsus belgilar; 2) urug'ning nomlanishida uning totemistik tasavvurlar; 3) Rang bilan bog‘liq birliklar; 4) inson tana a’zosi bilan bog‘liq birliklar; 5) insonning tashqi ko‘rinishi va o‘ziga xos belgisi bilan bog‘liq birliklar; 6) narsa-predmet nomi bilan bog‘liq birliklar; 7) son, miqdor tushunchalariga asoslangan birliklar; 8) nomlanishiga urug‘ning kasb-kori, doimiy mashg‘ulotiga ishora qilish birliklar; 9) nomlanishiga urug‘ning yashash joyi, geografik o‘rniga ishora qilivchi birliklar; 10) Etnik birlashma: qabila, elat, xalq, davlat nomlari bilan bog‘liq etnonimlar; 11) antroponimlar; 12) aholining ijtimoiy qatlami, tabaqasi nomini ifodalovchi birliklar.

Izlanishlarimiz natijasida Samarqand viloyati Ishtixon tumani etnotoponimlari tarkibida saqlanib qolgan o‘zbek urug‘i va uning tarqoqlari, shoxobchalari, to‘plarini semantik jihatdan quyidagicha tasniflashni lozim topdik:

1. *Tamg‘a shakli ko’rinishi yoki maxsus belgilar bilan bog‘liq etnonimlar.* Etnonimlarni yuzaga kelishida tamg‘alar bosh omil, sabab, asos hisoblanib kelgan. Tamg‘alar dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi o‘rtasida emas, chorvador aholi uchun muhim belgi vazifani o‘tagan. Chorvachilik bilan shug‘ullangan har bir etnik birlikning o‘z tamg‘asi bo‘lgan. Tamg‘alar shakli, tuzulishi, tasviri anglatgan ijtimoiy mazmuni va mohiyati bilan bir-biridan farqlangan. Tamg‘a oddiy shakl, chizma emas, ramziy nishon, belgi vazifasini o‘tagan. Tamg‘alar yirik etnik birliklar o‘rtasida farqlovchi, aniqlovchi belgi, shartli ramz vazifasini bajargan. Shu maqsadda tamg‘alar mollarning kuragi, ko‘kragi, bo‘yni, soni, sag‘risi va boshqa ko‘rinishli joylariga qo‘yilgan[13]. Ishtixon tumani etnonimlari orasida tamg‘asi asosida nomlangan etnonimlarga *sirg ‘ali (*sirg‘aga o‘xshash tamg‘ali*), qaychili (*qaychiga o‘xshash tamg‘ali*), taroqli (*taroqqa o‘xshash tamg‘ali*), to‘qmoq (*to‘qmoqqa o‘xshash tamg‘ali*), chovli (chov ko‘rinishiga ega tamg‘ali)* va boshqalarni kirgizish mumkin. Shuningdek, tamg‘a asosida nomlangan urug‘lar o’zbek etnonimlari tarkibigda juda ko‘p uchraydi.

2. *Nomlanishi totemistik tasavvurlar bilan ifodalangan etnonimlar.* Nomshunoslikda etnonimlarning nomlanishida xalqning ibtidoiy totemlari, totemistik qarashlari, dunyoqarashi va tushunchalari bilan bog‘liqlik holati ko‘p uchraydi.

Totemistik qarash insoniyatning tabiatga, tabiat hodisalariga, mavjudotlarga (hayvonlar, qushlar, parrandalar, turli jonzotlar, hasharotlarga) munosabati majmuyi demakdir. Totemistik dunyo qarash insoniyatning din va diniy qarashlar, ta’limot yaratilgungacha bo‘lgan bilimlarini o‘zida aks

---

[2] Шен Д.А. Этноним в лексико-семантическом пространстве английского языка: Афтореф.дисс.канд.филол. наук. – Нижни Новгород, 2009. – 22 с.

[3] Григорьева Н.Е. Этнонимы в диалектной лексико-семантической системе (на материале псковских говоров). Афтореф.дисс.канд.филол.наук. – Псков, 2020. – 25 с.

[4] Богомягкова Е.В. Этнонимы современного немецкого языка. Афтореф.дисс.канд.филол.наук. – Санкт-Петербург, 2005. – 20 с.

[5] Абрамзон С.М. К семантике киргизских этнонимов // Советская этнография. 1964. - № 3. – С. 123-132.

[6] Бушаков В.А. Тюркская этноойконимия Крыма. – Москва, 1991. – С. 217.

[7] Сиразхитдинов Р.А. Этнонимия Башкир: семантико-словообразовательный анализ: Афтореф.канд. филол. наук. – Уфа, 2000. – С. 30.

[8] Карпов Г. И. Племенной и родовой состав туркмен. – Полторацк: Наркомвнутдел. 1925. – С. 9.

[9] Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари: Филол.фан. номз.дисс. – Тошкент, 1996. – Б. 36-46.

[10] Марқаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи: Филол.фан.номз.дис. – Тошкент, 2007. – Б. 73-97.

[11] Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Фил.фан.номз.дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 12.

[12] Туробов А.М. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларининг таҳлили: Фил.фан.номзоди диссер. – Тошкент, 1999. – Б. 135.

[13] Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси (Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи). – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 19.

ettiradi. Totemistik qarashlar insoniyatning tabiatga yerga, suvga, o‘simlik va tog‘ga topinish, hayvonlar va parrandalarga sig‘inish, ularning barchasini, ma’lum bir qismini yoki birini muqaddas deb bilishi o’z mujassamini topganligi ma’lum[14].

Totemistik qarashlar, munosabatlar aks etgan etnik birliklar nomlari va ulardan yuzaga kelgan etnonimlarga Ishtixon tumanida *qoraqo’yli, qo’ng’irot, bahrin, kerayit, tuyabovur, chigirtkali, olchin, oqqush, qirg’ay, toytuyoq, avjin, buqa, kiyikchi, bag’ish, uyshin, guvalak, ilonli, kaltatoy, kojar, to’lg’a, yobi//yobu* va boshqalarni kirgizish mumkin.

3. *Rang bilan bog‘liq etnonimlar.* Ranglar ham boshqa lingvomadaniy belgi sifatida etnonimlarning nomlanishida o‘ziga xoslikka ega. K.Sh.Shoniyozovning ma’lumotlariga ko‘ra qora, qizil, ko‘k, sariq, oq kabi etnik nomlar Oltoy, Janubiy Sibirda yashagan qadimgi turkiy qabilalar nomlaridan kelib chiqqan[15]. Bu kabi ranglar turkiy xalqlar uchun madaniy belgiga egaligi bilan ahamiyatlidir. Turkiy xalqlarga aloqador hisoblangan ayrim etnonimlar tarkibidagi bir qancha tarmoqlarida rang va sifat bilan bog‘liq so‘zlar bu urug‘ tarmoqlarini bir-biridan farqlash vazifalarini ham o‘tagan. Rang bilan bog‘liq etnik birliklar nomlari va ulardan yuzaga kelgan etnonimlarga Ishtixon tumanida *qizilquloq, qoracha, qorachuval, qoraxo’ja* va boshqalarni kirgizish mumkin.

Qoraxo’ja – o’zbek urug’laridan birining nomi. Qaraqalpoqlarning ashamayli qabilasida qoraxo‘ja urug‘i bo‘lgan[16]. Turkman xalqining yovmut qabilasi tarkibida ham garaxo‘ja degan urug‘ borligi ma’lum[17].

Qoracha – O‘zbekiston va Tojikiston qatag‘anlari burqa urug‘ining bir tarmog‘i – qoracha deb yuritiladi[18]. Xudayberdi Doniyorov o‘z tadqiqotlarida qoracha degan o‘zbek urug’i borligini aniqlagan[19]. (60-81). Xalq nutqida qoracha – oddiy xalq, eshonlar shajariga mansub bo’lmagan kishilarga nisbatan ham shunday hoda ishlatilgan.

“Qora” komponentli birliklar qadimiy turkiy qatlamda ko‘p semali birlik sifatida namoyon bo‘ladi. “Qora” so‘zi faqat rang nomi emas, balki ayrim tarixiy kontekstlarda “ulug‘, katta, asosiy” ma’nolarini bildirishi (masalan, Qoraxoniylar), ayrim hududlarda esa yo‘nalish va kosmologik tasnif (masalan, “qora” – shimoliy) ham ifodalab keladi. Shuningdek, “Oq” komponentli birliklar ham rang nomini ifodalash bilan birgalikda ijtimoiy maqom, kosmologik tasnif (masalan, g‘arbiy tomonni) bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘zida aks ettiradi. Bu ko‘p qatlamlilik natijasida “qora” komponenti etnonim tarkibida bir vaqtning o‘zida rang-ramziy va ijtimoiy-semantik yukni ko‘tarishi mumkin.

4. *Insonning tashqi ko‘rinishi va o‘ziga xos belgisi bilan bog‘liq etnonimlar.* Shunday etnonimlar borki, ular shu urug‘ vakillarining tashqi ko‘rinishi, o‘ziga xos belgi-xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Insonning tashqi ko‘rinishi va o‘ziga xos belgisi bilan bog‘liq etnik birliklar nomlari va ulardan yuzaga kelgan etnonimlarga Ishtixon tumanida *boylata, boyto‘pi//boyto‘bi, boylar, bek, beklar, bekto‘pi, ko‘sato‘p, quljamol, qulchara, tentak, boymoqli* va boshqalarni kirgizish mumkin.

Beklar – 92 bovli o‘zbek urug‘alarining tarmoq vakillaridan hisoblanadi. Mang‘itlarning oqmang‘it bo‘limining, mirishkorlarning bir kichik tarmog‘i beglar//beklar deyilgan. Qon‘g‘irotlar oyinni bo‘limidagi beshbola urug‘ining bir tirasi – beglar/beklar deyilgan.

Ko‘sa – etnonimi qo‘ng‘irotlarning *qo‘shtamg‘ali* urug‘i tarkibiga kiradi. Mazkur urug‘ga mansub erkaklar siyrak soqolli bo‘lib, genetik jihatdan bir necha avlod davomida saqlanib kelmoqda.

Kallar – turk ittifoqiga kiruvchi kaltatoy qabilasining bir urug‘i. U kattakallar va maydakallar to‘plariga bo‘linadi. Bundan tashqari, Rabotak arablarining bir guruhi o‘zlarini beshkal urug‘iga mansub deb hisoblaganlar, qo‘ng‘irotlarda esa kallar degan to‘p bo‘lgan.

---

[14] Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси (Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи). – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 16.
[15] Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент, 2001. – Б. 73.
[16] Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. –Л.: 1950. –С. 164.
[17] Атаниязов С. Туркменыстанынг географик атларынинг душундиришли сузлуги. –Ашхабад: 1980. –Б. 95.
[18] Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. –Москва: 1976. –С. 105.
[19] Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент, 2017. – 81 б.

5. *Son, miqdor tushunchalariga asoslangan etnonimlar.* Tarixiy manbalarda bunday tipdagi nomlar qadimgi urug‘ va qabilalarning miqdori ularning boshqa qavmlar o‘rtasida tutgan o‘rni va o‘z mavqeyini belgilashi asos bo‘lgan. Boshqacha qilib aytganda qabila va urug‘larning jamiyatdagi o‘rni ana shu xususiyatiga ko‘ra belgilangan[20]. Son, miqdor tushunchalariga bog‘liq nomlangan etnik birliklar nomlari va ulardan yuzaga kelgan etnonimlarga Ishtixon tumanida *mang‘it, yuz, beshbola, beshkapa, beshlik* va boshqalarni kirgizish mumkin. Shuningdek, bunday tipdagi etnonimlarni o‘z doirasida quyidagicha guruhlarga tasniflash ham mumkin: a) umumiy miqdor ifodalochi so’z bilan bog‘liq bo‘lgan etnonimlar: *qirq, yuz, ming, mang‘it, minglar, beshlik, yuzlik, to‘qson, do‘rmon*; b) qarindoshlik munosabatida bo‘lgan va bir urug‘ yoki qabilaga kiruvchi etnik kompanentga ishora qiluvchi etnonimlar: *qirqyigit, beshbola;* b) urug‘ yoki qabila tarkibiga kiruvchi oila va xo’jalik miqdoriga ishora qiluvchi etnonimlar: *beshkapa, uchkapa, qo’shali* va b.

6. *Nomlanishiga urug’ning kasb-kori, doimiy mashg‘ulotiga ishora qilish asosida nomlangan etnonimlar*. Etnonimlarning nomlanishida shu etnik guruh aholisining kasbi, doimiy mashg‘uloti yoki bir buyum yasashda mohirligini ko‘rsatuvchi belgilarni ifodalash ham kuzatiladi. Bunda etnik guruh aholisi yasagan buyumini mashhurligi bilan bog‘liq. Nomlanishiga urug‘ning kasb-kori, doimiy mashg‘ulotiga ishora qiluvchi belgisi bilan bog‘liq etnik birliklar nomlari va ulardan yuzaga kelgan etnonimlarga Ishtixon tumanida *egarchi, pichoqchi, choponchi, oltiketmon, tokchali, gilambob, qang’li* va boshqalarni kirgizish mumkin.

7. *Nomlanishiga urug‘ning yashash joyi, geografik o‘rniga nisbat berib yasalgan etnonimlar*. Bunday semantik guruhga mansub etnik nomlarning nomlanishida dastlab yashagan hududi yoki biror hudiddan ko‘chib kelganligiga ishora sifatida qo‘llanilgan. Bu turdagi etnik nomlarga Ishtixon tumanidagi *balxli//bolqi, xurosoni, uyshin* va boshqalarni kirgizish mumkin.

Uyshin – urug‘i o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, boshqirt, tatar, no‘g‘ay xalqlarining tarkibida uchraydi. Bu urug‘ tarixiy manbalarda *uyshun, uyshin, uysun, uysin, usun, ushun* kabi variantlarda qo‘llanilgan. Rashididdinning “Jome-at tavorix” asarida *ushin* nomi bilan tilga olinib, mo‘g‘ullardan kelib chiqqan elatlar tarkibiga kiritilgan. Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida *uyshun* nomi bilan tilga olingan. N.Xanikovning Buxoro xonligining tavsifi asarida *yuyshun* nomi bilan ro‘yxatga olingan. H.Vamberining O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat asarida *o‘shin (uyshin)* nomi bilan ro‘yxatga olingan. A.P.Xoroshxin “Kitmer” asarida *uyshun* nomi bilan ro‘yxatga olingan.[21]

A.N.Bernshtan fikricha, *uyshun / uysun* va *kushan / kusan* etnonimlari bir manbadan kelib chiqqan.[22] B.G‘.G‘afurov esa Sharq xalqlari tillarida *usuan / usvan* etnonimi bo‘lgan, bu so‘z kelib chiqishiga ko‘ra, *uyshun / uysun / usun* va *kushan / kusan* etnonimlariga daxldor deb qaragan.[23]

Uyshun etnonimi tarixan yasama so‘zdir. *Uy+shun* qismlaridan tashkil topgan. Qozoq tilshunosi T.Januzaqov turkiy tillarning oltoy davrida *uy/o‘y* so‘zi “o‘rmon”, “daraxtzor” degan ma’noni anglatishini ta’kidlagan. Etnonimning ikkinchi qismi *shun* so‘zi umumoltoy tiliga xos bo‘lib, turli tovush qiyofasida ayrim turkiy tillarda saqlanib qolingan. Yoqut tilida *zo‘n* – xalq, odamlar, qabila; tuva tilida *cho‘n* – xalq, qabila; chuvash tilida *sin/shin* – xalq, kishilar; qadimgi xunnlar tilida *jun/jo‘n* tarzida bo‘lgan. Turkiy, mo‘g‘ul, tungus – manjur tillariga oid bu so‘z odamlar, kishilar, odamlar uyushmasi ma’nosini anglatgan.[24] Bu so‘zning yuqorida sanab o‘tilgan tillardagi *z-ch-s-sh-j* tovushlari uyg‘unligi umumturkiy tillar uchun xarakterlidir. *Uyshun* – so‘zi “o‘rmon kishisi”, “daraxtli joyda yashovchilar” degan ma’noni bildiradi.

---

[20] Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари: Филол.фан. номз.дисс. – Тошкент, 1996. – В. 41.

[21] Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент, 2017. – 135 б.

[22] Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси (Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи). – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 262.; Бернштам А.Н.К. вопросу об усунь-кушан и тохарах // СЭ. 1947. – Б. 42.

[23] Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси (Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи). – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 263.; Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая и средневековая история. – Москва, 1972. – Б. 131.

[24] Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси (Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи). – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 263.; Джанузаков Т. Очерк казахской ономастика. – Алма-Ата, 1982. – Б. 60.

Xullas, hudud etnonimlarning asosiy ma’noviy-mavzuviy guruhlarini, motivativ asoslarini tadqiq qilish natijasida ularning nomlanishida etnonimlarning qadimiy ishonch-e’tiqodlari, diniy tasavvurlari, falsafiy tushunchalari, totemistik qarashlari, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy, geografik muhiti kabi xususiyatlar asos bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абрамзон С.М. К семантике киргизских этнонимов // Советская этнография. 1964. - № 3. – С. 123-132.
2. Атаниязов С. Туркменыстанынг географик атларынинг душундиришли сузлуги. –Ашхабад: 1980. –Б. 95.
3. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 95.
4. Бернштам А.Н.К. вопросу об усунь-кушан и тохарах // СЭ. 1947. – Б. 42.
5. Богомягкова Е.В. Этнонимы современного немецкого языка. Афтореф.дисс.канд.филол.наук. – Санкт-Петербург, 2005. – 20 с.
6. Бушаков В.А. Тюркская этноойконимия Крыма. – Москва, 1991. – С. 217.
7. Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая и средневековая история. – Москва, 1972. – Б. 131.
8. Григорьева Н.Е. Этнонимы в диалектной лексико-семантической системе (на материале псковских говоров). Афтореф.дисс.канд.филол.наук. – Псков, 2020. – 25 с.
9. Джанузаков Т. Очерк казахской ономастика. – Алма-Ата, 1982. – Б. 60.
10. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент, 2017. – 135 б.
11. Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. –Л.: 1950. –С. 164.
12. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. –Москва: 1976. –С. 105.
13. Карпов Г. И. Племенной и родовой состав туркмен. – Полторацк: Наркомвнутдел. 1925. – С. 9.
14. Марқаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи: Филол.фан.номз.дис. – Тошкент, 2007. – Б. 73-97.
15. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси (Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи). – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 262.;
16. Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари: Филол.фан. номз.дисс. – Тошкент, 1996. – В. 41.
17. Сиразхитдинов Р.А. Этнонимия Башкир: семантико-словообразовательный анализ: Афтореф.канд. филол. наук. – Уфа, 2000. – С. 30.
18. Туробов А.М. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларининг таҳлили: Фил.фан.номзоди диссер. – Тошкент, 1999. – Б. 135.
19. Шен Д.А. Этноним в лексико-семантическом пространстве английского языка: Афтореф.дисс.канд.филол. наук. – Нижни Новгород, 2009. – 22 с.
20. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент, 2001. – Б. 73.
21. Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Фил.фан.номз.дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 12.